



ICHKI ISHLAR UCHUN DEKORATIV SUV ASOSIDAGI MAHSULOTLAR GURUHI

BETEK AQUALUX®

MAHSULOT TAVSIFI

Betek AquaLux® — suv asosli, hashamatli yaltiroq teksturaga ega, to'liq yuviladigan va artishga chidamli dekorativ finish bo'yoq. Akрил emulsiyali bo'yoq bo'lib, turli xil yuzalarda ko'p maqsadli DIY ishlari uchun ishlab chiqilgan.

XUSUSIYATLARI

Suv asosli hashamatli yaltiroq tekstura va devorlar uchun yuqori oqlikni ta'minlaydi. To'liq yuviladigan va artishga chidamli. Yog'och, metall, shisha, plastmassa, keramika, mato va oboy kabi turli xil yuzalarni bezash va bo'yash uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Yuzaga oson tarqalishi tufayli mehnat sarfini kamaytiradi. Yopuvchanligi yuqori. Yuzaga mukammal singadi. Yorilmaydi, pufaklanmaydi va ko'chmaydi. Suv asosli bo'lgani sababli o'tkir hid chiqarmaydi. Atrof-muhit va inson salomatligi uchun xavfsizdir.

QO'LLANILADIGAN YUZALAR

Hashamatli yaltiroq teksturaga ega Betek AquaLux® mos grunt qo'llangandan so'ng ichki yangi va eski bo'yalgan yoki suvoqlangan devor va shiftlarda, shuningdek suvoq, shpaklyovka, gipsokarton, sement plitalari, OSB, shisha tolali yuzalar va bo'yaladigan oboylarda qo'llaniladi.

Betek AquaLux® ning noyob teksturasi va yaltiroq effektini to'liq olish uchun yuzani satinali suvoq yoki shpaklyovka kabi tekislovchi materiallar bilan tayyorlash tavsiya etiladi.

Yog'och va metall yuzalarda (ichki va tashqi) tegishli tayyorlov ishlari bajarilgan taqdirda qo'llash mumkin.

QO'LLASH

Yuzani kir, chang, mog'or yog'i va bo'sh qatlamlardan tozalang. Yuzaning mustahkam, quruq, toza va o'zini ushlab tura oladigan holatda ekanligiga ishonch hosil qiling.

Beton, ochiq beton va yangi suvoqlangan yuzalarda **28 kunlik** qotish muddati saqlanadi, so'ngra bo'sh suvoq zarralari qirg'ich yoki shunga o'xshash usullar bilan olib tashlanadi. Zarur bo'lsa yuzani ta'mirlash va tekislash ishlari bajariladi.

Bo'yaladigan asos yuqori sifatli natija uchun muhim ahamiyatga ega. Yangi suvoqlangan va birinchi marta bo'yaladigan ichki yuzalar hamda ilgari erituvchi asosidagi bo'yoqlar bilan bo'yalgan eski yuzalar uchun **Betek Primer** tavsiya etiladi.

Ilgari suv asosli bo'yoqlar bilan bo'yalgan yuzalarda esa bo'yoqdan oldin **Betek Lux Primer** qo'llash tavsiya etiladi.

Suvoq va gazbeton kabi singdiruvchan va kuchli chang chiqaradigan yuzalarda **Betek 1/7 – 1/10 Concentrated Primer** (**1:5** nisbatda suyultirilgan) yoki **Betek Gel Primer** qo'llanadi.

Qattiq va yaltiroq yuzalarda (oshxona jihozlarning qattiq qoplamalari, laklangan bo'yoqlar, shisha, qattiq PVX va shunga o'xshash materiallar) bo'yoqdan oldin **Betek Astarix** surtish talab etiladi.



OOO "COLORLAB"
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'gon ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88



Juda iflos yuzalarda yopuvchanlikni oshirish uchun **1 yoki 2 qatlam Kapatan** dog' yopuvchi bo'yoq, undan keyin **1 qatlam Betek Primer**, so'ngra **1–2 qatlam Betek AquaLux®** finish bo'yoq surtiladi.

Turli yuzalar uchun qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar, yuzani tayyorlash va gruntlardan foydalanish haqida batafsil ma'lumotlar ilova qilingan texnik hujjatlarda keltirilgan.

HAVOSIZ PURKASH

Bosim: **120–140 bar**

Soplo burchagi: **50°**

Soplo o'lchami: **0,019"**

Suyultirish: **Foydalanishga tayyor**

Zarurat bo'lganda, yetarli plyonka qalinligi ta'minlangan holda, toza suv bilan 5% gacha suyultirib, bir qatlam qilib bezhavo purkash usulida qo'llash mumkin.

SUYULTIRISH

Mahsulot foydalanishga tayyor. Cho'tka yoki valik bilan qo'llashda yuzaning holati va tanlangan rangga qarab, toza suv bilan **maksimal 5% hajmda** suyultirib, **kamida ikki qatlam** qilib surtish tavsiya etiladi.

QURISH VAQTI (20°C va 65% nisbiy namlikda)

Tegib ko'rishda qurishi: **30–60 daqiqa**

Qatlamlar orasida: **4–6 soat**

To'liq qurish: **24 soat**

Mebel yuzalarida (stol, stul, oshxona jihozlari va shunga o'xshash): **72 soat**
(namlik yuqori va harorat past bo'lsa, qurish vaqti uzayishi mumkin)

Eslatma: ikkinchi qatlamni 4 soatdan oldin surtmang. Maksimal yopuvchanlik gruntlangan vaqtda va kutish muddati saqlanganda ta'minlanadi. To'liq quriguncha yuzalar sovuqdan himoyalaniishi kerak.

SARFI

Yuzaning turi, singdiruvchanligi va tuzilishiga qarab, **1 litr** bo'yoq bilan **13–20 m²** maydonni bir qatlamda bo'yash mumkin. Aniq sarfni aniqlash uchun sinov surtmasi bajarish tavsiya etiladi.

SAQLASH

Mahsulot ochilmagan qadoqda, sovuqdan va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoyalangan, quruq va salqin joyda **3 yil** saqlanishi mumkin. Ishlatilgandan so'ng qopqog'ini darhol mahkam yoping.

Ushbu texnik ma'lumotnoma odatda laboratoriya ma'lumotlariga asoslanganligi sababli, yuqorida yetarli darajada bayon etilmagan masalalar bo'yicha texnik mutaxassislariga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Aks holda, ma'lumot yetishmasligi natijasida yuzaga kelgan xatolar uchun ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanmaydi. Kompaniya ushbu ma'lumotlarni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Ushbu mahsulot TS EN ISO 9001, TS EN ISO 14001, TS 45001, TS EN ISO 50001, TS ISO 10002 va TS EN ISO/IEC 27001 standartlariga muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lgan Betek A.Ş. kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan.



OOO "COLORLAB"
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Miskin MFY, Chilto'g'on ko'chasi, 24/3-uy

Tel: +998 99 866-89-88,

+998 77 119-89-88